



The nature of the poetic image in Uzbek poetry of the last quarter of the 20th century

Khurshida NISHONOVA¹

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

nature of the poetic image,
relationship between the
subject and the idea,
social consciousness,
diversity of opinions,
evaluation criteria.

ABSTRACT

This scientific article analyzes the poetic image characteristic of the work of such Uzbek poets as Nazar Shukur, Chori Avaz, Ravshan Fayz, Azam Oktam, Muhammad Yusuf, Aziz Said, Abduvali Qutbiddin and Eshkabil Shukur. The main attention is paid to the study of poems in which poetic images are expressed through religious views. The article emphasizes the significance and relevance of studying this topic, especially in the context of the relationship between literature and religion, and their influence on the formation of cultural identity.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp219-225>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

XX asr so'nggi choragi o'zbek poeziyasida poetik obraz tabiati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

poetik obraz tabiati,
mavzu va g'oya munosabati,
ijtimoiy ong,
fikrlar xilma-xilligi,
baholash mezonlari.

Mazkur maqolada ham aynan Nazar Shukur, Chori Avaz, Ravshan Fayz, A'zam O'ktam, Muhammad Yusuf, Aziz Said, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur kabi ijodkorlarga xos poetik obraz tabiati haqida so'z boradi. Ushbu maqolada shoirilar she'rlari e'tiqodiy qarashlar orqali poetik obraz ifodalanishiga oid she'rlar tahlilga tortilgan. Shu munosabat bilan ushbu maqolada ko'tarilgan mavzuning ahamiyati va dolzarbligi muhim o'rin tutadi.

¹ Doctoral student, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. E-mail: khurshidanishonova@gmail.com

Природа поэтического образа в узбекской поэзии последней четверти XX века

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

характер поэтического образа,
соотношение субъекта и идеи, общественное сознание,
многообразие мнений, критерии оценки.

В данной научной статье осуществляется анализ поэтического образа, характерного для творчества таких узбекских поэтов, как Назар Шукур, Чори Аваз, Равшан Файз, Азам Октам, Мухаммад Юсуф, Азиз Саид, Абдували Кутбиддин и Эшкабиль Шукур. Основное внимание уделяется исследованию стихотворений, в которых поэтические образы выражаются через религиозные воззрения. Статья подчеркивает значимость и актуальность изучения данной темы, особенно в контексте взаимосвязи литературы и религии, и их влияния на формирование культурной идентичности.

KIRISH

“Badiiy adabiyotda ijodkor maqsadi, xohish istagini namoyon qiluvchi obrazlar uning poetik obrazi”[8.36-37]ni belgilaydi. Ideal va uning tabiati adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir. Bu ijodkorning adabiyotda o‘z badiiy, falsafiy g‘oyalari tizimini yaratishi demakdir. Badiiy ijoddagi poetik obraz haqida gapirishdan avval adabiyotning o‘zgaruvchanlik, yangilanuvchanlik xususiyatini hisobga olgan durust. Shu ma’noda o‘tgan asrning 60-yillaridanoq o‘zbek adabiyotida birin-ketin shakl va mazmun jihatdan yangi lirik figuralar paydo bo‘la boshladi. Rus, turk, g‘arb badiiy tafakkurining o‘zbek poeziyasiga ta’siri kuchaydi. Bu davrda yaratilgan o‘zbek she’riyatidagi alohida xususiyatlarga, obraz va obrazlar tabiati, lirik qahramon kechinmalari, psixologizm masalalari, umuman, ijodkor poetik obrazi haqida ko‘pchilik olimlar o‘z qarashlarini bayon qilishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotshunoslikda poetik obraz muammosiga olimlar o‘tgan Yunon-grek tamadduni zamonlaridan boshlab o‘z qarashlarini bildirishgan. Ushbu izlanishlar asosan obrazning kelib chiqishi va ifoda usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, yunon faylasufi Aristotel, sharq mutagakirlari Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, nemis olimi Gegel, jadid mutafakkirlari Fitrat, Cho‘lpnlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Rus adabiyotshunos olimi Y.Ye. Bertels Alisher Navoiy ijodini o‘rganar ekan, allomaning “Saddi Iskandariy” dostoni to‘g‘risida: “Navoiy bu asardan ko‘zda tutgan maqsadi – komil podsho obrazi bo‘lib, Iskandar zamonasining xukmdorlariga ibrat bo‘lishi lozim edi” [22.408], deydi. Aytish kerakki, obrazga ob’yektiv baho berib bo‘lmaydi. Negaki, har bir ijokor alohida fenomen bo‘lgani kabi, u yaratgan obrazlarni baholovchi mezonlar ham alohida bo‘lishi kerak. Nemis faylasufi Immaniul Kant shu nuqtai nazardan obrazga sub’yektiv yondashishni tavsiya qiladi. Ko‘rinadiki, obraz ma’lum bir vaziyat, davr taqazosi bilan yuzaga keladi.

Obraz uyg‘onish Ovro‘posi vakillari A.T. Baumgarten, G.V.G. Gegel, I. Kant tomonidan tadqiq etilgan. Keyinchalik V.G. Belinskiy, N.A. Dobrolyubovlar hayot haqiqati bilan aynan, degan qarashni inkor qilib, muallif orzu qilgan va anglagan hayot sifatida ko‘rsatilgan. Abdurauf Fitrat esa san’atni qayta yaratish vositasi ekanini ko‘rsatib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada adabiyotshunoslikning azaliy muammolaridan biri poetik obrazning tabiatiga xos jihatlar muhokama qilinadi. Uning kelib chiqishi va XX asrning so'nggi choragida voqelanishiga oid jihatlar tavsiflanadi.

O'zbekistonda adabiyotshunoslikda sharq va g'arb adabiyotiga xos obrazlar mezonlari tahlili qilindi va solishtirildi. Oliy ta'limda poetik obrazga yondashuv me'yorlari nazariyasi tahlillar yordamida asoslandi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Poetik obraz har bir ijodkor fitrati bilan bog'langan darajada namoyon bo'ladi. Uning har bir voqelikka xolisona baho berishi, millat va jamiyat hayotining muhim bo'g'ini sanalgan adabiyotning mavjud holatidan o'zgarishlar, jozibador tuyg'ular badiiy ijodning yashovchanligini ta'min etadi.

"Ideal mukammallikning mumtoz ko'rinishi" [9.148]. Shu ma'noda lirikada ifoda etilgan har qanday obraz ideallik nuri bilan badiiylikka erishadi. Badiiyatda poetik obraz yaratish *"nihoyatda qiyinchilik bilan kechadigan va amalga oshadigan hodisadir. Aytish mumkin-ki, asardagi qahramonlar ijodkor poetik obrazining rangin qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Va yaxlitlikda san'atkorning g'oyalar sistemasini, demak-ki, ijodiy fenomenini namoyon qiladi"* [10.289]. Izlanishlar jarayonida ustozlardan *"she'riyatda poetik obraz nima?"* degan savolimizga har turli javob oldik. Adabiyotshunos olim Abdulla Ulug'ovning *"she'riyatdagi poetik obraz – shoirning o'zi"*, degan javoblariga nisbatan tanishib chiqilgan nazariyalar doirasida hayrixohlik yuzaga keldi.

She'riyatdagi poetik obraz lirik qahramonda namoyon bo'ladi, chunki u muallif dunyoqarashi mahsuli. *"Aristotel o'z davrida lirikaning qahramoni muallif"* [10.291] degan fikrni aytgan. Demak, lirikada poetik obraz voqelanish nuqtai nazaridan muallifning o'zidir.

Ob'yektiv olamdagi u yoki bu narsa-hodisa o'z in'ikosini dastlab Shoir ruhiy olamida topadi. Unda voqelikka nisbatan *"stimulum reaksiya"* ro'y beradi, ta'sirlanadi. Shoir buni lirik qahramon tabiatiga ko'chiradi. Shu yerda Shoir *"men"*i faoliyatini davom etirishni *"lirik men"* zimmasiga yuklaydi. Bundan Shoir *"men"*i faoliyatsizlikka mahkum bo'ladi degan to'xtamga kelish xato. *"Shunday holatlar bo'ladi-ki, she'rda uchta timsol muallif, lirik men va uning zamondoshi birlashishi"* [11.75] poetik obraz tabiatini ifodalashi mumkin. Shu bilan birga *badiiy ijodning birlamchi sharti – ijodkor shaxsi butunligidir* [12.56]. Shaxsning butunligi mavjudlik va mohiyatning birligini ifodalab, butunlik esa shaxs intilgan ideal mavjudligi, ayni paytda uning hayotdagi yashash mezonlari ana shu ideal mohiyatida birlashib, obrazlarda namoyon bo'ladi.

80-yillardan she'riyatda psixologizm kuchaydi. Bu davrga kelib o'zbek milliy she'riyatida tasavvufiy mavzularga qiziqish sezilarli tus ola boshladi. O'zbek shoirlarining diniy mavzularga qo'l urishdan maqsadi komil inson timsolini yaratish hamda Sho'ro siyosatida ta'kidlangan dinga qarshi fikrlarning asossiz ekanini aytish edi.

Insoning atrof-tevaragida kechayotgan voqea-hodisalar jarayonini jamiyat og'ushida anglash, tushunish hamda bildirish badiiy so'z san'ati yuzaga kelgan olis zamonlardan beri hukm surib kelayotir. Demak, inson adabiyot va san'atning eng qadimiy va navqiron badiiy o'rganish mavzulari sirasidan. Aslida komil inson tushunchasi ham bir obrazdir.

Poeziyadagi hamma obraz – dard xosilasi. Ammo undagi ideal armon bilan dard bilan yuzma-yuz tura oladi. U har qanday shaxsiy ichki his-tuyg'u, kechinmalardan baland. Bu o'rinda Abdulla Oripovning *"Onajon"*, Rauf Parfining *"Abdullajon marsiyasi"* bitiklarini eslashning o'zi kifoya. Bundan keyin o'zbek poeziyasiga kirib kelgan Shavkat Rahmon ijodida obraz – g'oya darajasida tarannum etiladi.

*Bu quyosh xo'rlangan
Bu oy zo'rlangan
Zarlari talangan bu sodda jabal.
Qon, aroq, peshobni emib to'ralgan.
Buvaklar bo'kirib yig'lagan mahal.
yo Xudo dedimu
Nurlar o'ynagan
Peshanam ilk bora tuproqqa tegdi [14.5].*

Shoirning lirik qahramoni – inson. Shoir o'zi uchun kuyunmaydi. U allaqachon mag'lubiyatga mahkum, yelkalari cho'kkan inson obrazi tasvirini “Daryojon” (keltirilgan she'r sarlavhasi) timsoli orqali berar ekan an'anaviy obrazga murojaat etadi. Uning barcha tuyg'u va kechinmalari, muhabbati va e'tiqodi hamisha Ollohning oliy yaratig'i bilan omuxta. Shoir o'zining dardi boshlanish nuqtasini insoniyat ildizida ko'radi.

Inson o'z vatani quchog'ida bo'lsagina baxtli. Agar Vatan, millat abgor bo'lsa-chi?! Unda insondan-da badbaxtroq odam bo'lmaydi. Shunda Shoir badbaxtlikdan ko'ra bebaxtlikni sog'inadi.

*Mana, parcha yuragim,
Tugilgan mushtlarga xos.
Bu talangan vujudim,
Vatan degan so'zga mos [15.21].*

deya nola chekadi. Vatan inson kabi talanmadi, yo'q... Inson shu Vatanda yashayapti, uning og'riqlari bilan hamnafas yashayapti. Faqat Shoirgina ana shu azoblarni o'z tanida sinab, sezib turibdi. Aziz Said ijodiga tegishli ushbu parchada Vatan kechmishi, uning ahvolidan qayg'urish Shoir poetik obrazi tabiatiga xos bir jihatini ko'rsatib beradi.

Usmon Azimning mana bu she'rini olib ko'ramiz:

*Jonim – jigarimsan,
Sen-da odamsan,
Loaqal ko'zingda bir yosh ko'rsaydim.
Loaqal qovushib qolgan qo'lingda,
Yovlarga atalgan bir tosh ko'rsaydim [16].*

She'r o'tgan asrning 80-yillariga taalluqli, ya'ni hali mustaqillikka erishmasimizdan burun oraliq bir davrda yozilgan. She'rda vatan uchun yonib-kuyayotgan “men” bor. U millatparvar. Ozodlik uchun jonini berishga-da tayyor qahramon bo'lib tasavvurimizda gavdalanadi.

*Bo'linib boryapman ming bir bo'lakka,
Xotiram yo'qlikka qorishib ketdi.
Selday oqib ketdi ko'ksimdan yurak,
Faqat xayol toshday qotdi boshimda.
Chinorning tagida bo'linib yotibman,
Shunda bir so'z bargday labimga qo'nar:
“Vatan” deyman, takror aytaman “Vatan”...
Birlasha boshlaydi yurak, aql, tan... [17]*

Hayot so'qmoqlarida bo'linib borayotgan insonni tiklashga, uning parchalarini qayta birlashtirishga qodir – Vatan. Shu shaklda Shoir Usmon Azim Vatanni poetik obrazning ochuvchisi sifatida beradi.

*Turkiston tug'lari tikilgan,
Vatansiz zotlarning yo'li berk.*

Zorlangan, zo'rlangan, to'kilgan,
Erkiday ayrilgan qutlug' erk [17].

Vatan faqat zamon yoki makon bilan bog'liq tuyg'u emas. U undan ham balandroq sezim. Vatan – o'tmish. Vatan – bugun. Vatan – kelajak. Vatan – taqdir. Vatanining ildizini, kechmishini bilgan odamgina uni ichiga, yuragiga sig'diradi. Poetik obraz – shu. Lirik qahramon nazarda tutgan sezim bevosita shu bilan bog'liq. Shuning uchun ham Rauf Parfi “Erkidan ayrilgan qutlug' erk”ni tuyadi, uni qo'msaydi. Uning zorlangan, zo'rlangan, to'kilganligidan ozorlanadi. Shoir she'riyatida badiiylashayotgan poetik obrazda birgina ishonch, tayanch – Vatan bor. Vatanga qayg'urish bor. Uning kelajagidan havotir bor.

Shuni ham ta'kidlash kerak-ki, bir xil muhit, bir xil hodisot turli ijodkorlarda turli kayfiyatni yuzaga keltiradi. Shu mazmunda bir davrda yashagan ijodkorlar yaratgan poetik obrazni bir xil mezon asosida baholab bo'lmaydi. *“Shoirilar bir davrda, bir xil sharoitda ijod qilishlari mumkin. Hech qachon bir xil ijod qilishmaydi. Chunki har bir odam alohida bir shaxs”* [18.52]

Odatda, har qanday hodisa, ko'proq fojeliq izsiz ketmaydi. Ular inson hayotida yuz beradi va munosabat paydo bo'lishiga sabab keltirib chiqaradi. O'tgan asr 80–90-yillarida mavjud bo'lgan obrazlar ana shu tarzda paydo bo'lgan. Ya'ni inson jamiyatda, mamlakatda yuz berayotgan, aqlga to'g'ri kelmaydigan voqelikka qarshi kurashga bel bog'ladi. Garchi kurashdan bir naf chiqmasa-da, baribir yuragidagi isyon olovi so'nmadi. Munosabat o'zining ikkinchi umrini yashay boshladi.

*Xibs etilganman o'zimga-o'zim,
Zanjiru kishanim rishtam paylarim.
Qullik tunlarida o'zimni-o'zim,
Ozodlik kutganday poyladim* [19.41].

Abduvali Qutbiddinning lirik qahramoni umri abadiy fojea bilan tugab, qismati boqiy baxtga ulanib ketuvchi, achchiq-achchiq orzular bilan isyonga belini bog'lagan insondir.

Insoniyat tarixiga nazar solsak, ijtimoiy evrilishlar jamiyatdagi ziyoli qatlam zimmasiga juda katta mas'uliyatni ortadi. Ayniqsa, *“Millatning qo'li yetmay turgan asriy orzu-armonlar qonidan bunyod etilgan qahramonlarning o'rni ahamiyati beqiyos”* [20.5].

Demak, ijodkorlar tomonidan anglangan, qayta ishlangan va o'quvchilarga tadim etilgan poetik obraz har bir insonning hayot yo'lida yo'lchi yulduzdek o'z o'rniga ega. Poetik obraz ijodkorning yo'lini ma'lum ma'noda belgilab beradi. Shu davrda she'riyatda bo'y ko'rsatgan poetik obraz o'z zamonasidagi noqisliklarni mukammal ko'rishga intilishi natijasida vujudga keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda XX asr o'zbek she'riyatida 80–90 yillar davri alohida o'rin tutadi. Bu she'riyat Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Nazar Shukur, Chori Avaz, Ravshan Fayz, A'zam O'ktam, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur kabi ajoyib shoirlar nomi bilan bog'liq bo'lib, yurtning avval vujudan, keyin e'tiqodan ruslar tomonidan bosib olinishiga qarshi kayfiyat bilan sug'orilgan. Masalan, Shoir A'zam O'ktamning “Taftish” she'riga nazar solsak:

*Keltirgan ekini yerimda qoldi,
Yengilgan bo'lsada
To'marisdan Kir
Ne berdi,
o'rniga nelarni oldi,
“Paxtakor”*

turkiy so'z emas baribir

Tashvishning bir qismi –

kasbim nomi – ish.

“Biz dehqon!”

deb qo'ydik o'zimizga nom.

Ekish, kutish, boqish,

terish, topshirish...

“Bi dehqon”-

“Qon ber!” – dan

Qolganmi dehqon? [21.46]

Faqat paxta terish bilan qadrlanadigan inson asli kim? Mavqe'i ham, a'moli ham, dardi ham faqat dehqonlik bilan bog'liq bo'lgan xalq qimmatini nechog'li?!

Shoir nazdida inson bu darajaga o'z-o'zicha tushib qolgani yo'q. Shiorlar, chaqiriqlar, yuqoridan keladigan ko'rsatmlar doirasida shakllangan bu odamlarga achinadi, kishi.

Sabr qilin to tugaguncha,

Kuzda o'ylang faqat terimni.

Xush ko'rmaydi qishloqlar uncha,

Paxta termaydigan kelinni [21.46]

Bu tasvirlardan anglashiladiki, XX asrning so'nggi choragida poeziyada shakllangan poetik obraz tabiati va mohiyatida jamiyatda insonga partiya a'zosi, ishchi, ota-ona, farzand, o'quvchi sifatida emas, inson sifatida munosabatda bo'lish g'oyalari ifodalanadi.

Ko'rinadiki, bu davrda yaratilgan ko'pchilik lirika namunalari mavjud tuzum illatlarini fosh qilish, yangi jamiyat, davlat, inson orzusi kuchli bo'ldi. Demak bu davrda ijod qilgan shoirlar she'rlarida yuzaga kelgan poetik obrazga ozodlik, istiqlol va xurlik g'oyalari singdirilgan.

Adabiyot hamma ko'rib turgan, ammo hech kim bila olmagan inson mohiyatini anglash uchun chog'lanib keldi. Inson esa azalu abad asrrolari ochilmas mukammal tilsim. Ana shu murakkab yaratilgan qaysidir jihatlarini kashf qilishga intilish 80–90-yillar she'riyati uchun mavzu bo'ldi. Bu yo'ldagi urinishlarda ijodkorlar poetik obrazi yanada yorqinroq namoyon bo'la bordi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, poetik obraz muammosi azal-azaldan adabiyotning eng muhim ilmiy nazariy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki, adabiyotning qiyofasi, unda odam va olam manzaralari, qolaversa, avvalo Oliy Haqiqatning aks etishi poetik obrazda namoyon bo'ladi. Poetik obraz borliqni anglash, tushunishda har bir davrda milliy adabiyotda qanday darajaga erishganini ko'rsatadi. Badiiy ijoddagi, xususan, shariyatdagi poetik obrazni aniqlash unchalik murakkab emasdek tuyulsa-da, ammo uning o'ziga xos alohida belgilarini ko'rsatib berib bo'lmaydi. Umuman olganda badiiy ijodning o'zgaruvchanlik, yashovchanlik jihatlarini hisobga olib, lirikadagi poetik obrazni ana shu mezonlar bilan o'lchash muhimdek ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аъзам Ўктам, Зиёрат, -Фарғона: Янгиқўрғон, 1992.
2. Аъзам Ўктам. Осмон яқин, -Т.: “АБУ МАТБУОТ-КОНСАЛТ”, 2011-йил.
3. Жўрақулов У., Худудсиз жилва, – Т.: Фан, 2006.
4. Олимов М., Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси, – Т.: Фан, 1994.

5. Қосимоқ Я., Уйғониш садолари, – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
6. Ҳаққулоқ И., Тасаввуф ва шеърият, – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
7. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча – ўзбекча изоҳли луғати, -Т.: Ўқитувчи, 1979.
8. Давлатова А., Фикр агар яхши тарбият топса...//Ўзбекистон матбуоти, 2006, 6-сон, 36-37-бетлар.
9. Давлатова А., Гавҳари ноёб...//Шарқ юлдузи, 2007, 1-сон, 146-148 бетлар.
10. Раҳимжонов Н. Бугуннинг қаҳрамони ким? // Ўзбек адабий танқиди, Антология, Т.: 2011, 291 б.
11. Тўлаков И., Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини, филол.фан.номз. дисс. –Т.: 1994.
12. Жабборов I.SH., Абдулла Орипов шэърияида тарихий шахс концепцияси ва лирик қаҳрамон масаласи, филол.фан.докт. дисс. –Т.:
13. Қуроноф Д., Идеал ва бадий яхлитлик. “Адабиёт надири” ёки Чўлпоннинг мангу саволи. –Т.: Зарқалам, 2006. -49-56.
14. Шавкат Раҳмон, Сайланма, -Т.: Шарқ, 1997, 5-б.
15. Азиз Саид, Чилтор, -Т.: Адабиёт ва санъат, 1988, 21-б.
16. ҳтпп//www.ziyo.uz//usonazim.25/12/2011
17. ҳтпп//www.ziyo.uz//adabiyotmanzaralari.usmonazim/lirika.06/02/2012
18. Кожинов В.В., Как пишети стихи? –М.: Провещениеб 1970.
19. Абдували Қутбиддин, Бахт йили, -Т.: Адабиёт ва санъат, 1991, 47-б.
20. Ҳамдамов У., XX аср ўзбек шеърияида идеал муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 5-сон, 29-б.
21. Аъзам Ўктам,Кузатиш, -Т.: Ёш гвардия, 1990, 46-б.22. Е.Э. Бертельс, Изобранные труды Наваи и Джами, стр.408.